



№ 33

2026 yil «4» «avgust»

**Bank xodimlarining huquqiy ongi va tushunchasini yuksaltirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirib borish maqsadida o'tkazilgan o'quv-trening
BAYONI**

2026-yil 15-iyul

Toshkent shahri

Qatnashdilar: "O'zsanoatqurilishbank" ATBga 2026-yil 16-30-iyunga qadar bankka ishga qabul qilingan xodimlari ("ZOOM" dasturi orqali <https://sqb-uz.zoom.us/j/83778822180?pwd=vbbKpcOMBO8LcqnbEPVHIKx2vm5zub.1>
Identifikator konferensii: 8377 8822 180 Kod dostupa: 494182)

O'quv-trening o'tkazilgan joy: Ishtirok etgan xodimlarning ish joyi

O'quv-trening mavzusi: O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosati, ustuvor yo'nalishlar, bankda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki hujjatlar - "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq Kodeksi" va "Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizom va boshqa hujjatlar talablari.

Ma'ruzachi: Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimi S.Kurdashev

Ishtirokchilar soni: Jami 22 nafar

O'quv-treningda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va boshqarish guruhi bosh menejeri S.Kurdashev tadbir qatnashchilariga "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosati, ustuvor yo'nalishlar va xorijiy tajriba" mavzusida taqdimot qildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va boshqarish guruhi bosh menejeri S.Kurdashev o'quv-trening ishtirokchilariga bankda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki hujjatlar, jumladan "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq Kodeksi" va "Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va

bartaraf etish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa hujjatlar talablari yuzasidan tushuncha va ma’lumotlar berib o‘tdi. Xususan,

- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki hujjatlar;
- bankda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari;
- ish yuzasidan sovg‘alar hamda mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish va berish

bo‘yicha talablar;

- xodimlar o‘rtasida o‘zaro sovg‘alar berish va olishda rioya qilinishi lozim bo‘lgan talablar;

- manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va boshqarish;
- bank xodimining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq majburiyatlari;
- bank xodimining faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha cheklovlar;
- manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari;
- bankning korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xabarlarni qabul qilishga

mo‘ljallangan aloqa kanallari;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar hamda manfaatlar to‘qnashuvi hollari bo‘yicha qonunchilikda belgilangan javobgarlik mavzularida taqdimot qildi.

Shuningdek, ma’ruzachi tomonidan trening davomida ishtirokchilarga bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablariga to‘liq rioya etishlarini, xususan odob-axloq kodeksi talablariga amal qilishlari, korrupsion huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha biron-bir ma’lumotga ega bo‘lsa - aloqa kanallari orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri anonim yoki shaxsni ochiqqlagan holda xabar berish huquqlari, shuningdek, xabar bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotlar sir saqlanishini hamda ular taqibga olinmasligi bo‘yicha eslatmalar berib o‘tdi.

O‘quv-trening yakunida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha tayyorlangan va “Google Docs” platformasiga joylashtirilgan test savollari orqali xodimlarning bilim hamda ko‘nikmalari baholashdan o‘tkazildi.

Shuningdek, o‘quv-trening ishtirokchilariga korrupsiyaga qarshi kurashish ruhida tayyorlangan “Korrupsiya – halokatga yo‘l” nomli videorolik qo‘yib eshittirildi.

"O‘zsanoatqurilishbank"
ATB Boshqaruvi Raisi
v.v.b:



A.Ergashev

kelishuvchilar: B.Raimov , J.Malikov, A.Kayumxodjayeva, A.Berdimuratov, A.Musratullayev, D.Rasulov, S.Kurdashev, O.Maxmudov , M.Habibullayeva, B.To‘lanboyev , D.Baxtiyarova, M.Gaybullayeva, A.Murtozayev , M.Baxramov , L.Xudoyarova, A.Akilov , To‘ybozorov Fazliddin, Salomov Xumoyun, S.Abdusamatov, N.Asqarova

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=jL84uK36&id=1e892cf1-9123-42ff-b43b-2a5a22f6aa35>